

O‘ZBEK TILI ANTROPONIMIYASIDA SO‘Z YASASHNING KONVERSIYA USULI

Sativoldiyeva Dildora Sadridin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

dildorasativoldiyeva@gmail.com

ORCID ID: 0009-00023977-2932

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21196296>

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tili antroponimiyasida konversiya usuli asosida so‘z yasalishi masalasi yoritildi. Nominatsiya nazariyasi doirasida onomastik birliklarning shakllanishi, xususan, apellyativ leksikaning antroponimga aylanish jarayoni tahlil qilindi. Konversiyaning ichki va tashqi turlari ajratilib, turli so‘z turkumlarining atoqli ot vazifasiga o‘tishi misollar asosida ko‘rsatildi. Shuningdek, bunday birliklarda yuz beradigan semantik, morfologik va sintaktik o‘zgarishlar qisqacha tavsiflandi. Tadqiqot natijasida konversiya usuli o‘zbek onomastikasida muhim so‘z yasalish vositasi ekani asoslandi.

Kalit so‘zlar: antroponimiya, onomastika, konversiya, antroponimlashuv, apellyativ, otlashish, nominatsiya.

Narsa-hodisalar, joy nomlari hamda shaxs nomlarini belgilash jarayoni til va tafakkurning o‘zaro aloqadorligini aks ettiruvchi murakkab lingvistik hodisalardan biridir. Nomlashning motivlari, tamoyillari va mexanizmlari qadim zamonlardan buyon ilmiy-falsafiy tafakkur markazida bo‘lib kelgan. Xususan, Demokrit, Platon, Geraklit hamda Aristotel tomonidan ilgari surilgan qarashlarda nom va mohiyat o‘rtasidagi munosabat masalasi muhim o‘rin egallaydi. Keyingi davr tilshunosligida bu muammo yanada tizimli o‘rganilib, Aleksandr Potebnya, Jan Boduen de Kurtene, Ferdinand de Sossyur kabi olimlar tomonidan nominatsiya nazariyasi doirasida ilmiy asoslangan. Mazkur tadqiqotlar nomlash jarayonining til tizimidagi o‘rni, uning semantik va funksional xususiyatlarini aniqlashga xizmat qildi [1, 92-93].

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida esa onomastik birliklarning shakllanishini, yasallishini o‘rganish, xususan, konversiya usulining o‘rni va ahamiyatini aniqlash dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Har bir atoqli otning hosil bo‘lish sababi bilan bog‘liq ensiklopedik-etnografik ma’no ham mavjuddir. Shuning uchun har qanday so‘zning atoqli otga ko‘chishi semantik yasallish yoki onomastik konversiya usulida yasallish deb ham yuritib kelingan.

Ayrim adabiyotlarda konversiya faqat so‘zlarning bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chishi hodisasi bo‘lmasdan, uning bir so‘z turkumining o‘z ichidagi turli “aylanish”lariga nisbatan ham qo‘llanilishi, masalan, atoqli otning turdosh otga ko‘chishi kabi hodisalar ham shu termin bilan atalishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi [2, 82]. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar *onomastik konversiya* terminini qo‘llagan. Aslida, onomastikada atoqli otning turdosh otga, turdosh otning atoqli otga yoki boshqa turkumga oid so‘zning atoqli otga aylanish hodisasini olimlar turlicha – *metafora* va *metonimiya hodisasi*, *kalkalash*, *transformatsiya* (Y.A.Karpenko, E.M.Murzayev va boshqalar) kabi terminlar bilan ataydilar [4, 28].

N.Oxunov onomastik konversiya usuli toponimlar yasallishida alohida o‘rin tutishini va uning quyidagi ikki turini qayd etadi:

1. Ichki konversiya.

2. Tashqi konversiya.

U onomastika doirasiga kiruvchi etnonim, antroponimlardan toponimlar yasalsa, ichki yasaliş, ya’ni ichki konversiya, onomastik tizimdan tashqaridagi otlardan yasalişini tashqi konversiya sifatida izohlaydi [6, 90].

A.Otajonova ham onomastik konversiyani semantik jihatdan ikki turga ajratadi:

1. Ichki konversiya. Uningcha, bunda atoqli otdan atoqli ot yasaladi.

2. Tashqi konversiya. Bunda nom onomastik tizimdan tashqarida bo’lgan so’zdan yasaladi [5, 75].

Atoqli otlar tizimi negizida yotuvchi leksemalar faqat turdosh otlardangina iborat emasligi masalani mana shu tarzda talqin etishdan qochishga sababchi bo’lmoqda. Shu sababli atoqli otlarga negiz bo’luvchi lisoniy material nomshunoslikka oid tadqiqotlarda “lug’aviy asos” “apellyativ”, “apellyativ leksika”, “toponimik leksika”, “antroponimik asos” deb yuritilmoqda.

Antroponimlashuv // antroponimizatsiya – turdosh so’z – apellyativ leksikaning yoki boshqa tip atoqli otning kishi atoqli oti vazifasiga o’tishi [7, 16].

Apellyativlar atoqli ot yasash uchun lisoniy baza bo’ladi. Leksik-semantik usulda ism vazifasiga ko’chayotgan apellyativ quyidagi shakllarda bo’lishi mumkin:

1. Sodda tub so’z shaklida: *O’tkir* (keskir; mohir, aqlli, zakovatli bola), *G’olib* (yengilmas, muzaffar, yenguvchi bola), *Xirom* (go’zal va nozik qadam tashlovchi; chiroyli yuruvchi), *Suluv* (chiroyli, go’zal, ko’hlik qiz), *Uzoq* (umri uzoq, davomli bo’lsin), *Hur* (jannat qizi; chiroyli qiz yoki ozod, erkin; baxtli, baxtiyor) kabi.

2. Sodda yasama so’z shaklida: *Baxtli* (saodatli, iqbolli, qutli qiz), *Nozli* (nozli, karashmali, go’zal, latif, jozibali qiz), *Oyli* (oyli kechada, oydinga tug’ilgan qiz), *Erkli* (erki o’zi bilan bo’lgan hur, ozod qiz) kabi.

3. Qo’shma so’z shaklida: *Gulnoz*, *O’rinbosar*, *Mirmuhammad* kabi.

4. So’z birikmasi shaklida: *Sotiboldi* kabi.

Professor A.G’ulomning fikricha, onomastikada otlashishga faqat bir usul – leksik substantivatsiya xosdir [3, 294-295].

E.Begmatov quyidagi so’z turkumlari otlashish yo’li bilan antroponim vazifasiga ko’chishini yozadi: sifatlar, olmoshlar, son, fe’lning vazifaviy shakllari, ravish, ba’zi modal va undov so’zlar otlashadi.

Olimning fikricha, “Otlashgan so’z turkumlari tilda uzoq vaqt atoqli ot – antroponim sifatida yashab qoladi. Bu ularning nominativ-funksional hamda onomastik birlik sifatidagi xususiyatini mustahkamlaydi. Bu xususiyat otlashgan leksemalarda antroponimik formantlarni qabul qilib, qo’shma ism tarkibida esa qo’shimcha komponentlarga ega bo’lgach, yanada turg’unlashadi.

Leksema va so’z shakllar, so’zning nutqiy shakllarini ism vazifasiga o’tishi – otlashish jarayonini oddiygina jarayon deb qarash kerak emas.

Otlashgan so’z antroponim vazifasiga o’tar ekan, ot turkumining grammatik xususiyatlariga bo’ysunadi, endi u muayyan joyni ataydi, ifodalaydi, kelishik, egalik va ko’plik qo’shimchalarini qabul qiladi

E.Begmatov qayd etganidek, “Haqiqatan ham otlashgan so’z avvalgi o’zi mansub so’z turkumiga xos xususiyatlarni yo’qotadi va endi ot turkumiga xos semantik hamda morfologik xususiyatlarga ega bo’ladi [8, 222-225]. Masalan, Masalan, lola [f.] – *loladoshlar oilasiga mansub, yirik, chiroyli gulli ko’p yillik o’simlik; manzarali ekma gul va uning qizil, sariq yoki targ’il guli*[10, 506], navbahor [f.] – *erta bahor, ilk bahor, bahorning boshi* [10, 6],

asal [a.] – o’simliklar gulidagi shira (nektar)ning ishchi asalarilar organizimidagi qayta ishlanishidan hosil bo’ladigan shirin, suyuq oziq mahsuloti [10, 104], Intizor [a.] – ko’rishga muhtoj, yo’liga muntazir [10, 218], Muhtaram [a.] – hurmat va ehtiromga sazovor, hurmat, qadr qilinuvchi; hurmatli [10, 666] kabi apellyativlar atoqli otga ko’chgach, antroponimga aylangach, ularda quyidagi grafik, semantik va morfologik hamda sintaktik o’zgarishlar kuzatiladi:

1. Atoqli ot, shaxs nomini anglatadi: *Lola* [f.] – loladek yashnagan, go’zal qiz yoki lolalar ochilgan paytda tug’ilgan qiz [9, 195]. *Navbahor* [f.] – ko’klam boshida tug’ilgan qiz yoki hayoti ilk bahordek yashnoq va obod bo’lsin [9, 276]. *Asal* [a.] – bol, shirin, ya’ni yoqimtoy va baland martabali qiz [9, 36]. *Intizor* [a.] – intiq bo’lib, orziqib kutilgan [9, 167], *Muhtaram* [a.] – hurmatli, qadrlı, yuksak e’zozga sazovor [9, 275].

2. Bosh harf bilan yoziladi.

3. Otga xos egalik, kelishik qo’shimchalarini qabul qiladi.

4. Otga xos sintaktik vazifalarda qo’llanadi.

Tilshunoslikda so’zlar turdosh va atoqli otlarga tasnif qilib o’rganiladi. “Ushbu tasnifda faqat ot kategoriyasi hisobga olingan. Holbuki, atoqli ot faqatgina otlardan emas, sifat, son, fe’llardan ham yasaladi.

Onomastika alohida leksik baza yaratmaydi, balki umumtil birliklariga tayangan holda rivojlanadi. Antroponimlar ham til tizimidagi mavjud modellarga asoslanib hosil qilinadi. Shu jihatdan konversiya usuli tilning ichki imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon etuvchi mexanizm sifatida ajralib turadi. O’zbek tili onomastik tizimida konversiya usuli muhim va faol so’z yasaliş vositasi hisoblanadi. U appelyativ birliklarning semantik ixtisoslashuvi orqali atoqli otlarga aylanishini ta’minlaydi. Kelgusida o’zbek tilining antroponimik va toponimik tizimida konversiya usulining funksional-semantik imkoniyatlarini chuqur o’rganish muhim ilmiy yo’nalishlardan biri bo’lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суперанская А. В. Структура имени собственного. Фонология и морфология. – Москва: “Наука”, 1969.
2. Ўзбек тили грамматикаси. 2 томли. – Тошкент: Фан, 1975.
3. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1957.
4. Дўсимов З. Изучение лингвистических особенностей географических назвий. – Тошкент, 1989.
5. Отажонов А. Хоразм этнотопонимлари. Тошкент: Фан, 1997.
6. Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005.
7. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек тили ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
8. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.
9. Бегматов Э. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016.
10. О’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent: G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.